

## XONA GULLARI TURLARI, ULARNI PARVARISHLASH TO'G'RISIDA TAVSIYALAR

*Absanova Bibixonim Berdiyor qizi*

*Abu Ali Ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi*

**Annotatsiya:** Turli maishiy texnika, plastic mebellar, linoleum, panellar, bo‘yoqlar, kir yuvish kukunlari vositalari xona hamda ofislardagi havoni benzol, fenol, formaldegid, karbonat angidrid gazi, azot oksidlari va ammiak bilan zaharlaydi. Ushbu maqolada xona va ofislarda ekologik vaziyatni yaxshilashga yordam beruvchi xona gullari bilan tanishamiz.

**Kalit so’zlar:** xona gullari, xona gullarini parvarishlash, sheflera, sindapsus, dratsena, xlorofitum,xamedoreya, fikus, yorongul,gullar holati.

Xona gullarining inson hayotida ahamiyati juda katta.Xona gullari xonani kislo rod bilan boyitadi, musaffo qiladi, insonga estetik zavq bag’ishlaydi, insonni stress ho latidan chiqishiga ko’maklashadi, xonani ko’rkam va fayzli bo’lishiga yordam beradi va dorivorlik ahamiyati bor.

Eng ko’p tarqalgan xona gullari. Shefflera (soyabon daraxti) Chekuvchilar yashaydigan yoki ishlaydigan xonalarda o’stirish mumkin. Bu o’simlik tamaki tutuni tarkibidagi nikotin va smolani tez “yutib yuboradi”. So’qmoqlari va urug’idan ko’payadi.

### **Tillarang ssindapsus (tilla epipremnum yoki fotos)**

Havoni benzoldan tozalaydi. O’simlikning keng barglari bu moddani katta miq dorda ham o’zlashtira oladi. Fotos tez o’sadi, uni ko’p sug’orish ham talab etilmaydi. So’qmoqlar va qalamchasidan ko’payadi.

### **Dratsena**

Formaldegidni zararsizlantiradi. Bu o’simlik oz miqdorda bo’lsa ham, laklar, yelim va mebeldan chiqadigan formaldegidni zararsizlantiradi. Marginata qalamchalari bilan ko’payadi.

Xlorofitum Havoga chiqariladigan gazlarni yaxshi “o’zlashtiradi”. Shuning uchun birinchi va ikkinchi qavatda istiqomat qiluvchilar uchun bu gul juda foydali. Xlorofitumni urug’idan, delenkasidan va kurtagidan ko’paytirish mumkin. Xamedoreya (xonaki palma)

Havoni namlantiradi, plastmassadan chiqadigan moddalarni filtrlaydi.Urug’I va tupini ajratish yo’li bilan ko’payadi.

### **Benjamin fikusi**

Havoni eng yaxshi tozalovchi o'simliklardan ikkinchi o'rinda turadi. Pechak si ngari ko'pgina zaharli moddalarni o'ziga singdiradi va changni oxanrabodek o'ziga t ortib oladi.Poya so'qmoqlari va urug'idan ko'payadi.

Xona gullarini parvarishlash yuzasidan tavsiyalar. Mart aprel oylari xonaki gullarni ko'chirib o'tqazish uchun juda qulay vaqtadir. Xonaki gullar ochiq joy ga ekilishidan avval tashqi muhitga va yorug'likka o'rgatilishi kerak. Ularni birdanig a quyosh nuri to'g'ri tushadigan joyga qo'yish yaramaydi. Odatda uyning shimol tara figa tushib turadigan soyaga taxminan bir haftaga qo'yiladi.Ana shundan keyingina t uvakdagi xonaki gullarni ochiq yerga o'tqazish mumkin. Bahorda daladan tuproq kelt irib bo'lmaydi.Shuning uchun bahorgi ekish xaqida kuz mavsumida o'ylab, tuproqni daladan keltirib qo'yishni maslahat beramiz.Gullarni ekishda yelim gultuvaklar uzoq vaqt xizmat qiladi. Faqat bunday idishdan foydalanganda suv chiqib ketish yo'li qava tini qalinroq qilish kerak.Lekin sopol idishlar suv ushslash, namlikni bir xil saqlash bo rasida yelim idishlardan afzalroq.

Shu sababli, iloji boricha gullarni sopol gultuvaklarga o'tqazing.

Xona gullarida uchraydigan holatlar O`simlik sekin o`syapti yoki umuman o`smanyaptimi? Barcha o`simliklar uchun kuz va qish sokinlik davri hisoblanadi. Bu paytda ular deyarli o`smanydi yoki juda sekin o`sadi.

Agar bu hol bahor va yozda ham davom etsa, bunga mineral moddalar, yorug`lik etis hmasligi va ko`p sug`orish sabab bo`ladi.Gullamasligi sokinlik davrining buzilishi, mineral moddalarning haddan ortiq berilgani yoki ko`p marta tuvagini almashtirishga ham bog`liq.

Sopol tuvak yuzasida yashil qoplam paydo bo`lsa, bilingki, suvni ko`p quygansiz. Barglarda quruq dog`lar bo`lsa, suvning kamligidan. Agar dog` tushgan burglar qurimasa,ko`p sug`orilganidan darak bo`ladi.Barglar burishib qolsa, o`simlik haddan ortiq sovuqda qolib ketgan bo`ladi. Uning joyini o`zgartirgan ma`qul.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida aytish kerakki, xona gullari haqida ko'proq ma'lumotlar bor. Parvarish qilayotgan gullarimiz haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, turi va yashash sharoitlariga alohida e;tibor berish lozim. Shundagina ular to'g'ri rivojlanadi. Ularning barchasi juda ham chiroyli, xonamiz ko'rki va fayzi bo'la oladi. Ularni parvarish qilishda har bir o'simlik uchun mos bo'lgan tabiiy o'g'itlardan foydalanish zarur. Shuni alohida e;tiborga olish kerakki xona gullari yetishtirish ham iqtisodiy tomonlama ham anchagina daromadli hisoblanadi.Sababi ularga ekologik sharoit tufayli alohida e;tibor berilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tadjiboyeva L.A (2022) yirik shaharlarda ekologik sof muhit yaratishda manzarali o'simliklarning o'rni.

2. Urban Botanics by Maaike Koster and Emma Sibley (2017) 192b
3. Plant Society by Jason Chongue (2017) 160b
4. [Avicenna.uz](https://avitsenna.uz) <https://avitsenna.uz/xona-va-...>
5. [Zamin.uz](https://zamin.uz) <https://zamin.uz/hayot-tarsi>